

Akademik To`ra Mirzayev bilan onlayn suhbat o`tkazildi

O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tashabbusi bilan Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi hamkorlikda "Akademik bilan suhbat" onlayn loyihasining bu galgi mehmoni O`zR FA akademigi, O`zbekistonda xizmat ko`rsatgan fan arbobi, folklorshunos olim filologiya fanlari doktori, professor To`ra Mirzayev bo'ldilar.

Ushbu onlayn suhbatda 50 ga yaqin ijod maktablari o`quvchilari, shuningdek, o`qituvchilar ishtirok etdi. Akademik To`ra Mirzayev onlayn suhbat ishtirokchilariga o`zbek xalq og`zaki ijodi, folklorshunoslik, o`zbek baxshichiligi haqida qiziqarli ma`lumotlarni gapirib berdilar hamda o`quvchilarni qiziqtirgan savollarga javob berdilar.



Shuningdek, akademik To`ra Mirzayev xalq og`zaki ijodi bu millatimizning o`zligini anglashida, milliy urf-odatlarimizni avlodlarga yetkazuvchi muhim manba sifatida ta`riflab o`quvchilarni ota-onalaridan, buva-buvilaridan eshitgan har xil rivoyatlar, maqol-masallar, dostonlarni yig`ib borishlarini va asosida o`zbek xalq og`zaki ijodini boyitishga o`z hissalarini qo`shishga chorladi.

Onlayn suhbat yakunida To`ra Mirzayev o`quvchilarga hamma muvofaqqiyatning tagida mehnat va intilish yotishi, shu sababli bugungi kunda mamlakatimizda yaratilgan imkoniyatlardan kelib chiqib ilm olishdan hech qachon to`xtamasliklari va har doim bilim olishga intilishi kerakligini alohida ta`kidlab o`tdilar.